

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
FARG`ONA POLITEXNIKA INSTITUTI  
“Ishlab Chiqarishda Boshqaruv” fakulteti  
“Menejment” kafedrası  
“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan

# MUSTAQIL ISH

Mavzu: Mutloq va Nisbiy miqdorlar

Bajardi:

46-16M gurux talabasi  
Abduraxmonov H

# Reja:

- Mutloq miqdorlar to`g`risida tushuncha va ularning turlari.
- Nisbiy miqdorlar to`g`risida tushuncha va ularning ifodalanishi.
- Nisbiy miqdorlarning turlari va ularni hisoblash tartib

# Mutloq miqdorlar to'g'risida tushuncha va ularning turlari

- Mutloq ko'rsatkichlar o'rganilayotgan hodisalar va ularning belgilarini bir xilligini, monandligini, o'xshashligini ifodalaydi. Ular hodisalar va ularning belgilarining ko'lami, soni, hajmi, darajasi makon va zamonda taqsimlanish shaklida namoyon bo'ladi. Mutloq miqdorlar hodisalar to'plami yoki bir butun qismini ta'riflashiga qarab makro va mikro ko'rsatkichlarga, olish usuliga asosan oqim va zahiraviy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Oqim ko'rsatkichlari ma'lum davr davomida sodir bo'lgan hodisalarning absolyut miqdorini ta'riflaydi, zahiraviy ko'rsatkichlar esa ularning muayyan holatini, ayni fursatda mavjud bo'lgan miqdorini aniqlaydi.

Ifodalanishiga qarab, mutloq miqdorlar **yakka va umumiy** miqdorlarga bo'linadi.

# Yakka mutloq miqdorlar

- **Yakka mutloq miqdorlar** statistik kuzatish jarayonida olinib, boshlang`ich xisob va kuzatish xujjatlarida qayt qilinadi. Bunday miqdorlar kuzatilayotgan to`plamning aloxida birliklarini tavsiflamaydi va statistik tekshirish uchun manba bo`lib xisoblanadi.

# Umumiy mutloq miqdorlar

- **Umumiy mutloq miqdorlar** deganda kuzatilayotgan to`plamning xar bir birligini emas, balki uning yig`indisini tariflovchi miqdorlar tushuniladi. Ular boshlang`ich statistik kuzatish materiallarini svodkalash natijasada olinadi. Umumiy mutloq miqdorlar moxiyati jixatdan bir xil bo`lgan yakka mutloq miqdorlarning yig`indisidir.
- $A_{UM} = a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n = \sum_{t=1}^{t=n} a_j$
- $A_{UM}$  - umumiy mutloq miqdor;
- $a_1 \dots a_n$  - yakka mutloq miqdorlar;
- $\sum_{t=1}^{t=n} a_j$  - Tuplam birliklarining yig`indisi.

Umumiy mutloq miqdorlar xodisa va jarayonlarning umumiy sonini, xajmini, qiymatini o`zida aks ettirib, muayyan olingan xo`jalik, tarmoq, viloyat, jumxuriyat mavqeyini imkaniyatini tavsiflaydi.

- Mutloq miqdorlar:
- Naturada;
- Shartli naturada;
- Pulda;
- Kompleks o`lchov birliklarida ifodalanishi mumkin.

## Natura

- **Natura** – o`lchov birligi deyilganda, o`rganilayotgan xodisaning ichki xususiyatini ifodalovchi og`irlik, uzunlik, hajm va boshqa birlilar tushuniladi.

## Kompleks

- **Kompleks** – o`lchov birliklari deyilganda, murakkab xodisalarni ifodalovchi ikki va undan ortiq o`lchov birliklarining o`zaro birlikmaisi xisoblanadi
- Masalan: “O`zbekiston temir yo`llari” AJ ning yillik yuk tashish aylanmasi 22,9 mlrd.tonna-kmni tashkil etadi.

## Shartli natura

- **Shartli natura** – o`lchov birligi deyilganda bir xil turdagi istemol qiymatga ega bo`lgan xodisalarni bir xil birlikka keltiruvchi o`lchov birliklari tushuniladi. Bu birlik negizida o`rganilayotgan xodisalarning muhim iste`mol istemol qiymatiga asoslangan nisbatlar yotadi.

# Nisbiy miqdorlar to`g`risida tushuncha va

## ularning ifodalanishi

Jamiyat taraqqiyotini nisbiy miqdorlarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Xamma narsa taqqoslanishda bo`ladi. Ikki taqqoslama mutloq miqdorni bo`lish natijasida olingan umumlashtiruvchi miqdor statistikada **nisbiy miqdorlar** deb ataladi.

Nisbiy miqdorlar kuzatish jarayonida olingan malumatlarni avvalgilarga solishtirish natijasida olinadi.

Masalan: O`zbekiston Respublikasida 2017 yil yakuni bo`yicha o`tgan yilga nisbatan YaPI maxsulatida 5,3% ga o`shish kuzatildi.

Nisbiy miqdorlar xar xil shakilda ifodalanishi mumkin. Ularning ifodalanish shakli bazis miqdorning (nisbat maxrajini) qanday birlikka tenglashtirib olinishiga bog`liqdir. Shunga qarab, nisbiy miqdorlar koefisientlarda, foizda, promillda proditsimillda ifodalanadi.



- Agar bazis miqdor 1 ga tenglashtirilib olinsa, u xolda nisbiy miqdorlar koefisientda ifodalangan bo`ladi.
- Agar bazis miqdor 100 ga tenglashtirilsa, u xolda nisbiy miqdorlar foizda ifodalangan bo`ladi.
- Agar bazis miqdor 1000 ga tenglashtirilsa, u xolda nisbiy miqdor promilleda ifodalangan bo`ladi.

# Nisbiy miqdorlarning turlari va ularni hisoblash tartibi

**Nisbiy** miqdorlar xisoblanayotgan taqqoslash bazasi (maxraj) qilib bir hil miqdorlar qabul qilinishi mumkin.

Jumladan, bazis miqdor sifatida davlat buyurtmasi, o'tgan davr miqdori (hajmi), o'rganilayotgan xodisa yig'indisi, boshqa mintaqa ko'rsatkichi yoki qandaydir boshqa xodisalar ko'rsatkichi olinishi mumkin. Shunday qarab nisbiy miqdorlar quydagi asosiy turlarga bo'linadi:

Reja topshirig'i nisbiy miqdorlari.

Buyurtma bajarilish nisbiy miqdorlari.

Dinamika nisbiy miqdorlari.

Tuzilma nisbiy miqdorlari.

Koordinatsiyali nisbiy miqdorlari.

Intensiv nisbiy miqdorlari.

Obyektiv va hududiy taqqoslash nisbiy miqdorlari.

# Reja topshirig`i

- **Reja topshirig`i** – nisbiy miqdori rejalashtiralayotgan davr ko`rsatkichining oldingi yilning xaqiqiy ko`rsatkichiga nisbatan qanday o`zgarishi lozimligini ko`rsatadi va quyidagicha xisoblanadi:

$$RT_{NM} = D_{RT} \cdot 100 / D_0$$

$RT_{NM}$  – reja topshirig`i nisbiy miqdori.

$D_{RT}$  – Joriy davr uchun reja topshirig`i.

$D_0$  – Bazis davrda xaqiqiy bajarilgan ko`rsatkich.

# Dinamika nisbiy miqdorlari

**Dinamika nisbiy miqdorlari** bir xil turdagi xodisa va jarayonlarning vaqt bo`yicha o`zgarishini avsiflaydi. Ular joriy davr ko`rsatkichini bazis davr ko`rsatkichiga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi. Agar davrlar soni uch va undan ortiq bo`lsa, u xolda xar bir keyingi davr darajasini undan oldingi davr darajasiga taqqoslash yo`li bilan ham dinamika nisbiy miqdorlarini aniqlash mumkin. Birinchi ko`rinishda xisoblangan dinamika nisbiy miqdorlari bazisli, ikkinchisi esa zanjirsimon deb yuritiladi. Umumiy ko`rinishda ular quyidagicha xisoblanadi:

$$1. D_{NM}^b = D_i \cdot 100 / D_0$$

$$2. D_{NM}^z = D_i \cdot 100 / (D_{i-1})$$

Bu yerda  $D_{NM}^b$  – bazisli usulda hisoblangan dinamika nisbiy miqdorlari;

$D_i$  – i davr darajasi;

$D_{i-1}$  – xar bir keyingi davr oldingi davr darajasi;

$D_0$  – bazis davr darajasi.